

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

2026-YIL
IYUN/6-SON, III-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyun.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA ESG TAMOYILLARINI JORIY ETISHNING INSTITUTSIONAL TO'SIQLARI VA IQTISODIY OQIBATLARI	10
I. R. Berdikulova	
KIMYO SANOATINING IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI VA TARMOQ KORXONALARIDA BOSHQARUV HISOBI	14
Onorboev Sh.M.	
A WEEKLY LOGISTICS-CONTROLLING SYSTEM FOR EXPORT SUPPLY CHAINS: CORRIDOR-LEVEL EVIDENCE FROM A TEXTILE EXPORTER.....	26
Mukhammadiyahaminova Shakhzoda Sherzodovna	
FOTOVOLTAIK-TROMBE DEVORI ASOSIDA HAVONI ISITISH, TOZALASH VA ELEKTR ENERGIYASI ISHLAB CHIQRISH JARAYONLARINI INTEGRATSIYALASHNING ILMIY-METODIK TAHLILI.....	36
Rahimova Volida Karim qizi	
XAVFSIZ HAYOT TARZINI SHAKLLANTIRISHDA TA'LIM VA TARBIYANING O'RNI: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY MODEL.....	42
Nigmatjonov Sardor Abdumannovich	
РАЗВИТИЕ МЕТОДОЛОГИИ ВНЕДРЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ СТРАТЕГИЙ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ: КОНЦЕПТУАЛЬНЫЙ ПОДХОД.....	49
Дониёрова Зухрабону Алишер кизи	
KAMBAG'AL OILALARNI TADBIRKORLIKKA JALB QILISHDA DAVLAT TOMONIDAN MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH VA BOSHQARISH (MENEJMENT) TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI...53	
Bazarbaeva Asiya Shalkarbaevna	
MOLIVAVIY INKLYUZIVLIK KONSEPSIYASI: BANK XIZMATLARINING KAMBAG'ALLIK DARAJASIGA TA'SIRINING NAZARIY ASOSLARI VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI.....	58
Niyozov Zuxur, Abdujalilov Shexroz, Zubaydulloyeva Damira	
KORXONALARNI QAYTA TASHKIL ETISH JARAYONIDA ASOSIY VOSITALAR HISOBI VA BAHOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	61
Davletov Ikrom Raximberganovich	
ИОРДАНИЯ КАК ТУРИСТИЧЕСКИЙ ЦЕНТР БЛИЖНЕГО ВОСТОКА.....	67
Салихова Алина Муратовна	
QUYOSH ENERGIYASINI KONVERSIYALOVCHI OPTOELEKTRON GELIOTRANSFORMATORLARNING FIZIK-TEXNIK ASOSLARI	73
Axunov Qambarali, Xomidov Abdullajon, Mashrapova Irodaxon	
XXI ASRDA O'ZBEKISTONDA ELEKTR ENERGIYASINI TEJASHDAGI YANGI TEXNOLOGIYALAR.....	78
Xamrakulova Xilola, Yusupova Sevaraxon	
HUDUDIY IXTISOSLASHUVNING SHAKLLANISH OMILLARI VA MINTAQAVIY RIVOJLANISHDAGI AHAMIYATI	83
Sodiqova Nigora	
BANKLAR TRANSFORMATSIYASI JARAYONIDA AKTIVLAR SAMARADORLIGI TAHLILI.....	89
Muminov Bekzod Polvonovich	
ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ КАК КЛЮЧЕВОЙ ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА	95
Садыков Авазбек Мадаминович, Цхай Лана Александровна	
MILLIY KADRLAR ZAXIRASINI SHAKLLANTIRISHNING ILG'OR XORIJ TAJRIBASI.....	103
G'aniyev Elyor Sobirjonovich	
DIGITALIZATION OF INSOLVENCY PROCESSES: THE ROLE OF A UNIFIED ELECTRONIC PLATFORM IN ENSURING TRANSPARENCY AND ECONOMIC EFFICIENCY	110
Damirjon Nurmatovich Soliyev	



О ПРОЦЕССАХ ЦИФРОВИЗАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	116
Джумаев Аскар Хайдарович	
SOLIQ MA'MURCHILIGI METODOLOGIYASINING HUQUQIY, TASHKILY VA RAQAMLI BAZASINI SHAKLLANTIRISH BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR.....	121
Shamsiev O'ktam Sayfitdinovich	
KO'P XONADONLI UYLARDA KOMMUNAL XIZMATLAR KO'RSATISH SOHASINING INSTITUTSIONAL ASOSLARI VA HOZIRGI HOLATI TAHLILI.....	127
Muminov Obidjon Odilovich	
MINTAQA VA UNING HUDUDLARIDA MEHNAT OMILI HISOBIGA SANOAT SALOHİYATINI OSHIRISH YO'LLARI.....	135
Urazaliyev Bekzod Sultanbayevich	
КЛАССИФИКАЦИЯ ИНСТРУМЕНТОВ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ПРИНЯТИЯ РЕШЕНИЙ С УЧЕТОМ ОПТИМИЗАЦИИ БИЗНЕС ПРОЦЕССОВ.....	141
Джуманов А.А.	
O'ZBEKISTONDA SOLIQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRUVCHI OMILLARNI FAKTOR TAHLIL VA KO'P OMILLI REGRESSIYA ASOSIDA BAHOLASH.....	152
V.I. Isroilov, V.B. Ibragimov	
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В РАЗВИТИИ БАНКОВСКИХ УСЛУГ.....	158
Мамутова Айгуль Калмурзаевна	
QUYOSH NOVUZLARIDA SODIR BO'LUVCHI ISSIQLIK JARAYONLARINING BIR O'LCHAMLI MATEMATIK MODEL.....	165
M.M. Maxmudova, J.J. Kamolov	
ФАКТОРЫ, СДЕРЖИВАЮЩИЕ РАЗВИТИЕ БАНКОВСКОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ.....	172
Алиев Али Комил угли, Каримова А.	
ISTE'MOL KREDITLARINING ANAMIYATI VA O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	176
S. Qayumov, M. Qurbonov, A. S. Abduraxmanov	
AVTOTRANSPORT XIZMATLARI SAMARADORLIK DARAJASINI OMILLI TAHLILI.....	179
Raximov Azamat Hamroqulovich	
MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA FIRMALARNING TASHQI BOZORLARGA INTEGRATSIYALASHUV JARAYONLARI: XORIY TAJRIBASI.....	183
Ozodova Farida Zarif qizi	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УПРАВЛЕНИЯ ЗОЛОВОАЛЮТНЫМИ РЕЗЕРВАМИ И ВНЕШНИМ ДОЛГОМ КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ УЧАСТНИКОВ ФИНАНСОВОГО РЫНКА В УСЛОВИЯХ ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКИ.....	187
Зайналов Жахонгир Расулович, Алиева Сусанна Сейрановна	
GENERATIV AI ASOSIDAGI ALGORITMIK NARX BELGILASH MEKANIZMLARI: RAQOBAT IQTISODIYOTIDA MONOPOLLASHUV XAVFI, VANO BO'YICHA SOZLASHUV MUAMMOLARI VA ANTIMONOPOL TARTIBGA SOLISH.....	192
Kendjayeva Dildora Xudayberganovna, Abdumannopova Shirin Olamgir qizi	
РАЗВИТИЕ ЗЕЛЁНОЙ ЭНЕРГЕТИКИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН КАК ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА.....	200
Тураева А. И.	
THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN KNOWLEDGE DELIVERY MODELS.....	204
Daminova Barno Esanovna, Pardayeva Sevinch Sherzod qizi, Inoqov Jasur Komil o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ИНСТРУМЕНТОВ ФИНАНСОВОГО АНАЛИЗА ДЛЯ МАЛОГО БИЗНЕСА И СТАРТАПОВ.....	208
Ибрагимов Гайратжон Артикович	
RAQAMLI IQTISODIYOT VA SUN'IY INTELLEKT SHAROITIDA IJTIMOY-IQTISODIY ADOLAT QOIDALARI.....	216
Alimov Nasimjon Hoshimovich	



ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ КАК КЛЮЧЕВОЙ ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА.....	221
Садыков Авазбек Мадаминович, Цхай Лана Александровна	
TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA SUN'YI INTELLEKTDAN FOYDALANISH USULLARI.....	228
Daminova Barno Esanovna, Abduraimova Aziza Erkin qizi, G'ofurova Anora Zafar qizi	
XALQARO MOLIYAVIY HISOBOT STANDARTLARI (IFRS)GA O'TISH JARAYONIDA ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI HISOBINING MUAMMOLARI.....	233
Ismailov Naufal Nadirovich	
RAQAMLI BANK XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA SUN'YI INTELLEKT VA BIG DATA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI.....	241
Eshqobulova Charos O'roq qizi	
ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN HIGHER EDUCATION: A GLOBAL REVIEW OF AI-POWERED TEACHING AND LEARNING.....	245
Begzod Nishanov	
O'ZBEKISTONDA ISLOMIY SUG'URTA (TAKAFUL) TIZIMINI JORIY ETISH IMKONIYATLARI: NAZARIY-QIYOSIY TAHLIL.....	251
Abdullayev Azamat Akbar o'g'li	
RAQAMLI MARKETING VA MILLIY BRENDLASH ORQALI TURIZM EKSPORTINI OSHIRISH: YAQIN SHARQ TAJRIBASI VA O'ZBEKISTON UCHUN YO'L XARITASI.....	259
Bekmurodova F.A., Tolibova Aziza	
MEVA-SABZAVOTCHILIK QUYI MAJMUASIDA LOGISTIKANI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	263
Murodov Sherzodbek Murod o'g'li	
EMPLOYEE WELL-BEING IN POST-REFORM UZBEKISTAN: A SYSTEMATIC LITERATURE REVIEW AND RESEARCH AGENDA.....	268
Farida Nishanova	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI EKSPORTINI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI.....	274
Xakimov Zafar Ibragimovich	
АНАЛИЗ РАЗВИТИЯ ТУРИСТИЧЕСКОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ И ДИНАМИКИ ТУРИСТИЧЕСКИХ ПОТОКОВ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН (2010–2024 ГОДЫ).....	278
Бекимбетова Мария Махсетуллаевна	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I ZANJIRIGA INTEGRATSIYALASHNING FISKAL VA IQTISODIY SAMARADORLIGI: IXTIYORIY O'TISH MEKANIZMINING MIQDORIY VAHOLANISHI.....	282
Urazmatov Jonibek Musurmanovich	
RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA OLIY TA'LIM XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	287
Xasanova Yulduz Kayumovna	
ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ДОХОДОВ РАБОТНИКОВ СФЕРЫ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ.....	291
Рустамова Феруза Камоловна, Исхакова Сарвар Аюбовна	
ISSIQXONA TIPLI QUYOSH QURITGICHINING ENERGETIK, EKOLOGIK VA IQTISODIY TAHLILI.....	296
B.A. Hikmatov	
ASSESSMENT CRITERIA FOR THE EFFECTIVENESS OF DISTANCE EDUCATION IN THE EDUCATIONAL SYSTEMS OF DEVELOPED COUNTRIES.....	301
Umurzakova Gulyor Eshnazar qizi	
KO'P FUNKSIYALI PV-TROMBE DEVORIDA KONSTRUKTIV YECHIMLAR, HAVO FILTRATSIYASI VA STERILIZATSIYA JARAYONLARINING SAMARADORLIKKA TA'SIRI.....	307
Rahimova Volda Karim qizi	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSIYALARNI JALB ETISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI, MAVJUD MUAMMOLARI VA ULARNI BARATARAF ETISH YO'LLARI.....	312
Jiyanov Laziz Najimovich	



KNOWLEDGE ASSESSMENT AND RESULTS VISUALIZATION BASED ON TEXT MINING IN E-LEARNING PLATFORMS	317
Laziz Sayimovich Safarov	
THE ROLE OF DIGITAL EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN DEVELOPING THE PROFESSIONAL COMMUNICATION CULTURE OF FUTURE TEACHERS.....	321
Dilnoza Jorayevna Kuvatova	
TURIZM SOHASIDA KADRLAR TAYYORLASHNING ZAMONAVIY KOMPETENSIYALARI VA ULARNI SHAKLLANTIRISHNING TASHKILY-HUQUQIY ASOSLARI	325
Sharipov Shahriyor Shamsiddin o'g'li	
АКТУАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ЦИФРОВОГО РАЗВИТИЯ БАНКОВСКОЙ СФЕРЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	329
Бабаева Г. Я.	
О'ZBEKISTON SOLIQ TIZIMINI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA YOSHLARNING O'RNI.....	338
Hamidova Shahzoda Odiljanovna	
DIGITAL ECONOMY IN THE CONDITIONS OF CURRENT LEVEL AND DYNAMICS OF WOMEN'S ENTREPRENEURSHIP DEVELOPMENT	343
Ibodullayeva M.S.	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI HISOBI VA MAHSULOT TANNARXINING AUDITI	349
Almardanov Muxamadi, Bolibekov Baxtiyor, Safarov Javohir	
EKOLOGIK OMILLAR ASOSIDA HUDUDLARNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING FAZOVIIY-AXBOROT MODELLARINI TAKOMILLASHTIRISH (QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI VA OROLBO'YI MISOLIDA)	355
Reymova Gulmira Polatovna	
O'ZBEK VA INGLIZ TILSHUNOSLIKLARIDAGI SUBYEKT VA PREDIKAT PARADIGMASI, ULARNING UMUMIY VA XUSUSIY JIHLTLARI.....	362
Azamova Gulruh Akbar qizi	
MINTAQALARDA IJTIMOY HIMOYA TIZIMINI STATISTIK MONITORING QILISH VA BAHOLASH METODOLOGIYASI.....	366
M.Sh. Raximova	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA TO'QIMACHILIK KLASTERLARINI TASHKIL ETISH VA UNING IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI.....	370
Eshniyozov Asadbek Abdinazar o'g'li	
QURILISH KORXONALARIDA INNOVATSION-INVESTITSION FAOLLIKNI OSHIRISH ASOSIDA BOSHQARISHNING DOLZARB MASALALARI.....	375
Egamov Raxmatillo Mirolimovich	
QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INI HISOBLASH VA YIG'ISH AMALIYOTINI RIVOJLANTIRISH	380
Bisenbaev Sharyar Quwanishbay uli	
O'ZBEKISTONDA SANOAT TARMOQLARINI DIVERSIFIKATSIYALASHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	387
Kudratov Muhammad Rustamovich	
INVESTITSIYA RISKLARINI BOSHQARISH TIZIMIDAGI MUAMMOLAR VA ULARGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	393
Sobirjonova Nodira Rustamjon qizi	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGI KOOPERATSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILY-IQTISODIY MEXANIZMLARI	400
Abdinazarova Feruza, Abdiraximov Fayozbek	
IQTISODIYOTNI RAQAMLASHTIRISHDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING O'RNI VA XUSUSIYATLARI.....	406
Fayziyev Manuchehr Sharofiddinovich	



О‘ЗБЕКISTONDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI MOLIYALASHTIRISHDA RAQAMLI KREDITLASH VA MUQOBIL SKORING MEKANIZMLARINI RIVOJLANTIRISH	410
Hamroqulov Xushbaxt Sadriddinovich	
БЕНЧМАРКИНГ ВЫВОДА БОЛЬШИХ ЯЗЫКОВЫХ МОДЕЛЕЙ НА НРС-КЛАСТЕРАХ: ЗАДЕРЖКА, ПРОПУСКНАЯ СПОСОБНОСТЬ И ЭНЕРГОЭФФЕКТИВНОСТЬ	418
Исмайылов Эльвиз Анвар оглу	
HUDUDIY SOLIQ SALOHİYATINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI VA UNI SHAKLLANTIRUVCHI OMILLAR.....	423
Jurayev Xusan Atamuratovich	



HUDUDIY SOLIQ SALOHIYATINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI VA UNI SHAKLLANTIRUVCHI OMILLAR

Jurayev Xusan Atamuratovich

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
“Moliya va turizm” kafedrasini mudiri,
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
ORCID: <https://orcid.org/0009-0003-9805-9712>
E-mail: husanbek76@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada hududiy soliq salohiyatining nazariy-metodologik asoslari va uni shakllantiruvchi omillar kompleks tarzda tahlil qilinadi. Klassik makroiqtisodiy yondashuvdan boshlab zamonaviy integratsiyalashgan modellarga cha bo'lgan evolyutsiya bosqichlari ko'rib chiqiladi. Maqolada hududiy soliq salohiyatining real va potensial komponentlari ajratilgan holda tahlil qilinib, iqtisodiy, demografik, moliyaviy va institutsional omillarning hududlararo tafovutlarga ta'siri o'rganiladi. O'zbekiston viloyatlari misolida hududiy soliq tushumlarining sektorlar bo'yicha taqsimoti tahlil qilinadi hamda ko'p omilli regressiya modeli orqali hududiy fiskal siyosatni strategik rejalashtirishga ilmiy asoslar taklif etiladi.

Kalit so'zlar: hududiy soliq salohiyati, soliq tushumlari, fiskal siyosat, hududlararo tafovutlar, soliq ma'muriyati, iqtisodiy omillar, demografik omillar, institutsional samaradorlik, budjet rejalashtirish, ko'p omilli regressiya modeli.

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the theoretical and methodological foundations of regional tax capacity and the factors that shape it. The study traces the evolution from classical macroeconomic approaches to modern integrated models. The real and potential components of regional tax capacity are examined separately, with a focus on the impact of economic, demographic, financial, and institutional factors on interregional disparities. Using the regions of Uzbekistan as a case study, the distribution of tax revenues by sector is analyzed and a multifactor regression model is proposed for the strategic planning of regional fiscal policy.

Keywords: regional tax capacity, tax revenues, fiscal policy, interregional disparities, tax administration, economic factors, demographic factors, institutional efficiency, budget planning, multifactor regression model.

Аннотация. В данной статье комплексно анализируются теоретико-методологические основы регионального налогового потенциала и факторы, его формирующие. Рассматриваются этапы эволюции от классических макроэкономических подходов до современных интегрированных моделей. Анализируются реальный и потенциальный компоненты регионального налогового потенциала, влияние экономических, демографических, финансовых и институциональных факторов на межрегиональные различия. На примере регионов Узбекистана изучается распределение налоговых поступлений по секторам, а также предлагается многофакторная регрессионная модель для стратегического планирования региональной фискальной политики.

Ключевые слова: региональный налоговый потенциал, налоговые поступления, фискальная политика, межрегиональные различия, налоговое администрирование, экономические факторы, демографические факторы, институциональная эффективность, бюджетное планирование, многофакторная регрессионная модель.

KIRISH

Soliq salohiyati tushunchasi shunchaki yig'ilgan soliqlar miqdori emas, balki iqtisodiyotning muayyan rivojlanish bosqichida soliq to'lovchilarga ortiqcha og'irlik tushirmagan holda safarbar etilishi mumkin bo'lgan maksimal moliyaviy resurslar ko'lamini ifodalaydi. Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan soliq islohotlari doirasida soliq yukini kamaytirish, soliq ma'muriyatchiligini soddalashtirish va norasmiy iqtisodiy faoliyat ulushini kamaytirish ustuvor vazifa etib belgilangan. Bu jarayonda soliq salohiyatini to'g'ri baholash davlat budjeti parametrlarini aniq rejalashtirish va hududlarning iqtisodiy imkoniyatlaridan samarali foydalanish imkonini beradi. Shu bois soliq salohiyatining iqtisodiy mazmunini chuqur o'rganish va uning soliq tizimidagi o'rnini belgilash ilmiy va amaliy jihatdan juda dolzarb hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Soliq salohiyati tushunchasi iqtisodiy adabiyotlarda turli xil yondashuvlar asosida tadqiq etilgan. Ushbu tushunchaning mazmunini ochib berishda jahon va mahalliy olimlarning qarashlarini uchta asosiy yo'nalishga ajratish mumkin.

Klassik va neoklassik yondashuvlar. Ushbu yondashuv vakillari soliq salohiyatini mamlakatning umumiy iqtisodiy resurslari bilan bog'laydilar. Xususan, R. Musgrave va P. Musgrave o'zlarining "Public Finance in Theory and Practice" (1989) asarida soliq salohiyatini (tax capacity) iqtisodiyotning soliq bazasini tashkil etuvchi real daromadlari sifatida ta'riflaydilar. Ularning fikricha, soliq salohiyati — bu davlatning iqtisodiy o'sishga zarar yetkazmagan holda safarbar etishi mumkin bo'lgan maksimal resurslaridir [1].

Soliq stavkalari va salohiyat o'rtasidagi bog'liqlikni A. Laffer o'zining mashhur "Laffer egri chizig'i" nazariyasi orqali tushuntirib bergan. Uning ta'kidlashicha, soliq yukining yuqori darajada shakllanishi soliq to'lovchilarning faolligini pasaytiradi va natijada real soliq salohiyatining qisqarishiga olib keladi [2].

Fiskal va ma'muriy yondashuvlar. MDH davlatlari olimlari, jumladan, V. Panskov va I. Gorskiy, soliq salohiyatini ko'proq amaldagi soliq qonunchiligi bilan bog'laydilar. I. Gorskiyning fikricha, soliq salohiyati — bu muayyan hududda amaldagi soliq stavkalari sharoitida soliq bazasidan undirilishi mumkin bo'lgan soliq daromadlarining prognoz miqdoridir. Bu yondashuvda soliq ma'muriyatchiligi va yig'iluvchanlik ko'rsatkichlariga asosiy e'tibor qaratiladi [3; 4].

Mahalliy olimlarning tadqiqotlari. O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar soliq salohiyatini milliy iqtisodiyotning transformatsiyalashuvi nuqtai nazaridan o'rganganlar.

A. Jo'rayev o'zining ilmiy ishlarida soliq salohiyatini hududiy rivojlanish omili sifatida tahlil qiladi. Uning fikricha, soliq salohiyati nafaqat amaldagi tushumlar, balki hali soliqqa tortilmagan, lekin kelajakda daromad keltirishi mumkin bo'lgan manbalarni ham o'z ichiga oladi [5].

O. Voxidov o'zining doktorlik dissertatsiyasida soliq salohiyatini baholashda "yashirin iqtisodiyot" ulushini hisobga olish zarurligini ilmiy asoslab bergan. Uning qarashlariga ko'ra, soliq salohiyatining to'liq yuzaga chiqmasligiga soliq majburiyatlarini to'liq bajarmaslik holatlari va soliq imtiyozlarining samarasizligi sabab bo'ladi [6].

Sh. Toshmatov soliq salohiyatini oshirishning asosi sifatida tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy barqarorligini ko'rsatib o'tgan [7].

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, soliq salohiyati murakkab va ko'p qirrali tushunchadir. Agar klassiklar unga iqtisodiy imkoniyat sifatida qaragan bo'lsa, zamonaviy tadqiqotchilar uni soliq ma'muriyatchiligi va institutsional muhit bilan uzviy bog'liq deb hisoblamogda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda hududiy soliq salohiyatining nazariy-metodologik asoslarini o'rganish va uni shakllantiruvchi omillarni tizimli baholash maqsadida ilmiy abstraksional, taqqoslama tahlil, tizimli yondashuv, guruhlash va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Hududiy soliq salohiyatiga ta'sir etuvchi iqtisodiy, demografik, moliyaviy hamda institutsional omillar alohida tasniflandi va ularning real hamda potensial soliq tushumlariga ta'siri tahlil qilindi. Shuningdek, hududlararo tafovutlarni baholashda statistik tahlil va ko'p omilli regressiya modelidan foydalanish nazarda tutildi. Ushbu metodologik yondashuv hududiy fiskal siyosatni ilmiy asosda shakllantirish va soliq salohiyatini kompleks baholash imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Soliq salohiyati tushunchasi iqtisodiyot fanida uzoq tarixga ega bo'lib, turli davrlarda uning talqini va baholash yondashuvlari sezilarli darajada o'zgarib kelgan. Dastlab, klassik makroiqtisodiy yondashuvlarda soliq salohiyati hududning iqtisodiy ko'rsatkichlari orqali baholangan. Adam Smith va David Ricardo kabi klassik iqtisodchilar bu yondashuvda hududning yalpi ichki mahsuloti (YaIM), ishlab chiqarish hajmi va aholi daromadlarini soliq salohiyatining asosiy indikatorlari sifatida qarashgan. Ushbu yondashuvning afzalligi shundaki, u hududning real iqtisodiy resurslari va ishlab chiqarish imkoniyatlarini matematik jihatdan baholash imkonini bergan, biroq demografik, ijtimoiy va institutsional omillarni hisobga olmagan.

XX asrning ikkinchi yarmida iqtisodiy tahlil metodlari rivojlanishi bilan hududiy soliq salohiyatini baholashda zamonaviy yondashuvlar paydo bo'ldi. Ushbu yondashuvlar soliq salohiyatini faqat iqtisodiy omillar bilan chegaralamasdan, demografik, institutsional va ijtimoiy omillarni ham integratsiyalashga asoslangan (Musgrave, 1959; Oates, 1999). Shu asosda hududiy soliq salohiyati ko'p o'lchovli tushuncha sifatida shakllangan bo'lib, u hududning iqtisodiy quvvati, aholining soni va bandligi, soliq ma'muriyati samaradorligi hamda mahalliy boshqaruv sifati kabi ko'rsatkichlar orqali baholanadi. Bu yondashuv hududlararo tafovutlarni aniqlash va soliq



bazasining to'liq potensialini hisobga olish imkonini beradi.

Hududiy soliq salohiyatining rivojlanish bosqichlarini quyidagicha tavsiflash mumkin. Klassik makroiqtisodiy bosqichda (XVIII–XIX asrlar) soliq salohiyati faqat iqtisodiy ko'rsatkichlar orqali baholangan va hududiy tafovutlar hisobga olinmagan. XX asrning o'rtalarida fiskal yondashuv shakllanib, soliq salohiyati hudud budjeti va fiskal siyosat bilan bog'lanib, real va potensial tushumlarni ajratishga imkon bergan. XXI asrda esa integratsiyalashgan zamonaviy bosqich paydo bo'lib, soliq salohiyati iqtisodiy, demografik, moliyaviy va institutsional omillarni birgalikda hisobga olishga asoslangan. Mahalliy ilmiy yondashuvlar esa O'zbekiston sharoitida hududiy soliq salohiyatini mahalliy resurslar, bandlik va soliq ma'muriyati samaradorligi asosida baholashni taklif qilgan (Mas'udov, 2020; Tursunov, 2021).

1-jadval

Hududiy soliq salohiyatining rivojlanish bosqichlari va nazariy yondashuvlar¹

Rivojlanish bosqichi	Davr	Asosiy olimlar	Baholash yondashuvi	Xususiyatlar va cheklolar
Klassik makroiqtisodiy	XVIII–XIX asr	A. Smith, D. Ricardo	Iqtisodiy ko'rsatkichlar (YaIM, ishlab chiqarish, daromad)	Hududiy tafovutlar hisobga olinmagan; iqtisodiy imkoniyatlarni aniqlashga yo'naltirilgan
Fiskal yondashuv	XX asr o'rtalari	R. Musgrave, J. Stiglitz	Hudud budjeti va fiskal siyosat bilan bog'liq	Real va potensial soliq tushumlarini ajratadi; demografik va institutsional omillar cheklangan
Integratsiyalashgan zamonaviy	XXI asr	Oates, Bird & Smart, Ibragimov, Karimov	Iqtisodiy, demografik, moliyaviy, institutsional omillarni integratsiyalash	Hududiy tafovutlarni hisobga oladi; real va potensial salohiyatni prognozlash imkoniyati mavjud
Mahalliy ilmiy yondashuv	2010–hozir	Mas'udov, Tursunov	Hududiy resurslar, bandlik, soliq ma'muriyati	Hududiy fiskal siyosatni shakllantirish va budjet balansini strategik rejalashtirishga xizmat qiladi

Mualliflik talqini nuqtai nazaridan, hududiy soliq salohiyatini quyidagicha aniqlash mumkin: "Hududning mavjud iqtisodiy, demografik va institutsional resurslarini hisobga olgan holda, belgilangan soliq siyosati sharoitida yil davomida maksimal soliq tushumlarini yaratish qobiliyati." Ushbu ta'rif hududiy soliq salohiyatini nafaqat iqtisodiy ko'rsatkichlar orqali baholash, balki hududlararo tafovutlar va ijtimoiy-institutsional xususiyatlarni ham hisobga olish imkonini beradi. Shu bilan birga, u real va potensial salohiyatni ajratish orqali hududiy fiskal siyosatni samarali rejalashtirishga ilmiy asos yaratadi.

Shuningdek, hududiy soliq salohiyati tushunchasi tarixan iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan chegaralangan bo'lsa, zamonaviy talqinlar uni integratsiyalashgan, ko'p o'lchovli indikatorlar orqali baholashga imkon beradi. Evolyutsiya bosqichlarini hisobga olgan holda, hududiy soliq salohiyatining real va potensial jihatlarini ajratish mumkin, bu esa hududlararo tafovutlarni o'rganish va fiskal siyosatni strategik rejalashtirish uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Hududiy soliq salohiyati nafaqat hudud iqtisodiyoti barqarorligining, balki milliy fiskal siyosat samaradorligining ham muhim ko'rsatkichidir. Ushbu salohiyatning shakllanishi va darajasi bir qator ichki va tashqi omillarga bog'liq bo'lib, ular hududning real va potensial soliq tushumlarini belgilaydi. Ilmiy adabiyotlarda hududiy soliq salohiyatini faqat iqtisodiy ko'rsatkichlar orqali baholash yondashuvi klassik hisoblanadi (Adam Smith, 1776; Musgrave, 1959). Biroq so'nggi o'n yilliklarda zamonaviy tadqiqotlar hududiy soliq salohiyatini shakllantirishda iqtisodiy omillar bilan bir qatorda demografik, moliyaviy va institutsional omillar ham muhimligini ko'rsatdi (Bird & Smart, 2002; Oates, 1999; Ibragimov, 2019; Mas'udov, 2020).

Hududiy salohiyatning potensial va real komponentlari mavjudligi hududlararo tafovutlarni aniqlash va soliq siyosatini samarali shakllantirish uchun zarurdir. Potensial salohiyat hududning barcha resurslari, ishlab chiqarish imkoniyatlari, aholisi va moliyaviy salohiyatini hisobga olgan holda maksimal soliq tushumlarini yaratish qobiliyatini anglatadi, real salohiyat esa amalda yig'ilgan soliq tushumlari bilan o'lchanadi. Shu nuqtai nazardan, hududiy salohiyatni aniqlashda uning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarni tizimli tahlil qilish katta ahamiyat kasb etadi.

Ushbu bo'limning maqsadi — hududiy soliq salohiyatini shakllantiruvchi omillarni tizimli tarzda tasniflash, ularning hududlararo tafovutlar va real soliq tushumlariga ta'sirini aniqlashdir. Shu bilan birga, har bir omilning hududiy fiskal siyosatni rejalashtirishdagi rolini ko'rsatish va O'zbekiston sharoitiga moslashtirish ham

1 Manba: Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

bo'limning muhim vazifasi hisoblanadi. Tadqiqot natijalari hududiy soliq salohiyatini aniqlashda nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega bo'lib, budget rejalashtirish va hududlararo resurslarni taqsimlash jarayonini optimallashtirish imkonini beradi.

Hududiy soliq salohiyati tushunchasi ko'p omilli xarakterga ega bo'lib, uni shakllantiruvchi omillar turli darajada ta'sir ko'rsatadi. Hududiy soliq salohiyatini aniqlashda faqat iqtisodiy ko'rsatkichlarga e'tibor qaratish yetarli emas; zamonaviy nazariy va empirik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, hududning real va potensial soliq salohiyatini aniqlash uchun iqtisodiy, demografik, moliyaviy va institutsional omillarni birgalikda hisobga olish zarur (Bird & Smart, 2002; Oates, 1999; Mas'udov, 2020). Ushbu bo'limda har bir omil batafsil tahlil qilinadi, uning hududlararo tafovutlarga va real soliq tushumlariga ta'siri izohlanadi.

2-jadval

Hududiy soliq salohiyatiga ta'sir etuvchi omillar tasnifi²

Omillar guruhi	Asosiy ko'rsatkichlar	Hududlararo ta'sir va izohlar
Iqtisodiy omillar	YalM, ishlab chiqarish hajmi, sanoat va xizmatlar sektori, soliq bazasi hajmi	Sanoat va xizmatlar sektori rivojlangan hududlarda soliq tushumlari yuqori; diversifikatsiya barqaror soliq bazasini ta'minlaydi; iqtisodiy shoklarga chidamli
Demografik omillar	Aholi soni, ish bilan bandlik, migratsiya, urbanizatsiya darajasi	Ko'p aholili hududlarda soliq tushumlarining potentsiali yuqori; migratsiya oqimlari soliq bazasini o'zgartiradi; ish bilan bandlik real tushumlarga ta'sir qiladi
Moliyaviy omillar	Hudud budjeti daromad va xarajatlari, moliyaviy barqarorlik, soliq to'lovchilarning moliyaviy salohiyati	Barqaror budget va moliyaviy salohiyat soliq tushumlarining barqarorligini oshiradi; mablag'larni samarali boshqarish soliq bazasini kengaytiradi
Institutsional va ma'muriy omillar	Soliq ma'muriyati samaradorligi, boshqaruv sifati, soliq nazorati, institutsional shaffoflik va nazorat mexanizmlari	Samarali boshqaruv va nazorat real soliq salohiyatini oshiradi; hududiy fiskal siyosatni samarali amalga oshirishni ta'minlaydi

Iqtisodiy omillar hududning ishlab chiqarish salohiyati, sanoat va xizmatlar sektori rivojlanishi, soliq bazasi hajmi va YalM darajasini o'z ichiga oladi. Hududning iqtisodiy salohiyati soliq tushumlarining asosiy bazasini tashkil qiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, sanoat va xizmatlar sektori rivojlangan hududlarda soliq tushumlari yuqori bo'ladi, chunki yuqori ishlab chiqarish hajmi va yuqori qo'shilgan qiymat soliq bazasini kengaytiradi (Ibragimov, 2019).

Misol tariqasida, Navoiy viloyati sanoat kompleksining rivojlanishi va metallurgiya sektori soliq tushumlarining sezilarli qismini tashkil etadi. Shu bilan birga, Toshkent shahri va viloyatida xizmatlar sektori — savdo, transport va moliya xizmatlari — soliq tushumlarining diversifikatsiyalashgan bazasini yaratadi, bu esa hududiy salohiyatni barqaror qiladi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy sektorlardagi diversifikatsiya darajasi yuqori bo'lgan hududlarda soliq tushumlari global iqtisodiy shoklarga sezilarli darajada chidamli bo'ladi (Mas'udov, 2020).

Bundan tashqari, iqtisodiy ixtisoslashuv va resurslarning tabiiy mavjudligi hududiy soliq salohiyatini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Qashqadaryo va Buxoro viloyatlarida energetika va neft-gaz sektori hududiy salohiyatning asosiy segmentini tashkil qiladi. Shu sababli iqtisodiy omillar hududiy soliq salohiyatini shakllantirishda fundament sifatida qaraladi va bu omillarni o'rganish soliq siyosatini ishlab chiqishda asosiy manba hisoblanadi.

Demografik omillar hudud aholisi soni, ish bilan bandlik, migratsiya oqimlari va urbanizatsiya darajasini qamrab oladi. Ko'p aholili hududlarda soliq tushumlarining potentsiali tabiiy ravishda yuqori bo'ladi, chunki iqtisodiy faollik va iste'mol darajasi yuqori. Shu bilan birga, ish bilan bandlik darajasi va migratsiya oqimlari hududiy soliq bazasining real darajasiga bevosita ta'sir qiladi.

Masalan, Toshkent viloyati va Andijon viloyatida yuqori demografik salohiyat tufayli soliq tushumlari o'sib boradi, chunki bu hududlarda mehnat resurslari ko'p va iqtisodiy faollik yuqori. Shuningdek, qishloq hududlaridan shaharlarga migratsiya oqimlari urbanizatsiya darajasini oshiradi, bu esa shaharlardagi soliq bazasini kengaytiradi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, demografik omillar va iqtisodiy salohiyat bir-birini to'ldiradi. Aholi soni ko'p bo'lgan hududlarda soliqlarni to'lash qobiliyati ham yuqori bo'lishi mumkin, lekin ish bilan bandlik

2 Manba: Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



darajasi past bo'lsa, real soliq tushumlari potensial darajaga yetmasligi mumkin (Karimov, 2022). Shu sababli demografik omillar hududiy soliq salohiyatining nafaqat potensial, balki real komponentini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Moliyaviy omillar hudud budjetining daromad va xarajatlari, moliyaviy barqarorlik va soliq to'lovchilarning moliyaviy salohiyatini qamrab oladi. Budjet mablag'larining barqarorligi va ularni samarali boshqarish hududiy soliq salohiyatini oshiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, moliyaviy barqarorlik yuqori bo'lgan hududlarda soliq tushumlarining o'sish sur'ati ham yuqori bo'ladi (Tursunov, 2021).

Hududdagi soliq to'lovchilarning moliyaviy salohiyati ularning soliqlarni o'z vaqtida to'lash qobiliyati va soliq tizimiga bo'lgan ishonchini belgilaydi. Masalan, Toshkent shahri va viloyatidagi korporativ segmentning moliyaviy barqarorligi real soliq tushumlarining potensial darajaga yaqin bo'lishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, moliyaviy omillar hududiy fiskal siyosatni rejalashtirish va budjet balansini shakllantirishda strategik komponent sifatida qaraladi.

Institutsional va ma'muriy omillar soliq ma'muriyati samaradorligi, hududiy boshqaruv sifati, soliq nazorati tizimi va korrupsiyaga qarshi mexanizmlarni o'z ichiga oladi. Soliq tushumlarini to'plashda ma'muriy samaradorlik va nazorat mexanizmlarining yuqori darajasi real soliq salohiyatini sezilarli darajada oshiradi (Oates, 1999; Ibragimov, 2019).


Hududlarda soliq nazoratining samarali mexanizmi va elektron soliq tizimlarining joriy etilishi soliq tushumlarini oshirish va soliq to'lovchilarning majburiyatlarini to'liq bajarishini ta'minlaydi. Masalan, Toshkent shahri va viloyatidagi soliq ma'muriyati samaradorligi yuqori bo'lgani tufayli soliq tushumlari potensial darajaga yaqin bo'lishi kuzatiladi. Shu sababli institutsional va ma'muriy omillar hududiy soliq salohiyatini oshirishda strategik ahamiyatga ega.

Hududiy soliq salohiyatini shakllantiruvchi omillarni tizimli tahlil qilish natijasida bir nechta muhim xulosalar chiqarish mumkin. Birinchi navbatda, iqtisodiy va demografik omillar hududiy salohiyatning potensial darajasini belgilaydi. Bu degani, hududning ishlab chiqarish kuchi, sanoat va xizmatlar sektori rivojlanishi, soliq bazasining hajmi, shuningdek, aholining soni, ish bilan bandlik darajasi va migratsiya oqimlari hududning soliq tushumlarini yaratish imkoniyatini belgilovchi eng asosiy omillardir. Masalan, Navoiy viloyati yoki Toshkent shahri kabi iqtisodiy markazlarda yuqori ishlab chiqarish salohiyati va ko'p aholining iqtisodiy faolligi soliq tushumlarining potensialini oshiradi. Shu bilan birga, urbanizatsiya darajasi yuqori bo'lgan hududlarda aholining yuqori zichligi va ishlab chiqarish ko'rsatkichlari hududiy salohiyatni oshiradi, chunki bu hududlarda soliq bazasi keng va diversifikatsiyalashgan bo'ladi (Mas'udov, 2020).

Ikkinchi jihat, moliyaviy va institutsional omillar hududiy soliq salohiyatini real darajada amalga oshirish imkonini beradi. Bu esa shuni anglatadiki, hududda iqtisodiy va demografik salohiyat mavjud bo'lsa ham, moliyaviy barqarorlik, budjet mablag'larini samarali boshqarish, soliq to'lovchilarning moliyaviy salohiyati va institutsional boshqaruv samaradorligi yuqori bo'lmasa, soliq tushumlari potensial darajaga yetmaydi. Misol tariqasida, Toshkent viloyati va shahri moliyaviy barqarorlik va samarali soliq ma'muriyati tufayli real soliq tushumlarini maksimal darajada jalb qila oladi. Shu nuqta nazardan, moliyaviy va institutsional omillar hududiy soliq bazasini faqat iqtisodiy salohiyat bilan cheklamasdan, uni amaliy natijalarga aylantirishni ta'minlaydi (Oates, 1999; Ibragimov, 2019).

Uchinchi jihat — har bir omil hududlararo tafovutlarni tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiy, demografik, moliyaviy va institutsional omillar har bir hududning soliq tushumlari dinamikasiga bevosita ta'sir qiladi. Shu sababli hududiy soliq salohiyatini baholashda faqat yagona ko'rsatkichlardan foydalanish yetarli emas; omillarni integratsiyalashgan tarzda hisobga olish hududlararo tafovutlarni aniqlash va prognozlash imkonini beradi. Masalan, Andijon va Farg'ona viloyatlaridagi demografik va iqtisodiy salohiyat yuqori bo'lsa ham, moliyaviy barqarorlik va boshqaruv samaradorligi past bo'lishi tufayli real soliq tushumlari potensial darajaga yetmasligi mumkin. Shu bilan birga, Toshkent shahri va viloyatida yuqori institutsional salohiyat va moliyaviy barqarorlik tufayli hududiy tafovutlar kamroq kuzatiladi va soliq tushumlari barqaror bo'ladi.

To'rtinchi jihat, integratsiyalashgan yondashuv hududiy soliq salohiyatini aniqlashda eng ishonchli natijalarni beradi. Bu yondashuv iqtisodiy, demografik, moliyaviy va institutsional omillarni birgalikda hisobga olishni nazarda tutadi va hududiy salohiyatni prognozlashda yuqori prediktiv kuch beradi. Bunday yondashuv hududiy fiskal siyosatni strategik shakllantirish, budjetlarni rejalashtirish va resurslarni samarali taqsimlashda asosiy vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, integratsiyalashgan yondashuv hududlararo tafovutlarni aniqlash, hududiy fiskal siyosat samaradorligini oshirish va hududiy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda amaliy qiymatga ega bo'ladi.



1-rasm. Hududiy soliq tushmlarining sektorlar bo'yicha ulushi (%)³

1-rasm hududlar soliq salohiyatidagi tafovutlarni vizual tarzda ko'rsatadi. Natijalardan ko'rinib turibdiki, Toshkent shahri va viloyati yuqori urbanizatsiya darajasi, xizmatlar sektorining rivojlanganligi hamda institutsional samaradorlik tufayli hududlararo soliq salohiyatida yetakchi pozitsiyani egallaydi. Shu bilan birga, hududning iqtisodiy va moliyaviy resurslari ham real va potensial soliq tushumlarini maksimal darajada amalga oshirishga imkon beradi.

Navoiy, Samarqand va Andijon viloyatlari o'rta darajada rivojlangan hududlar sifatida ajralib turadi. Ushbu hududlarda sanoat va xizmatlar sektorining nisbatan yuqori ulushi soliq tushumlarining sezilarli darajada o'sishiga hissa qo'shadi. Shuningdek, bu hududlarda institutsional boshqaruv va urbanizatsiya darajasi o'rta bo'lgani sababli real soliq tushumlari potensialdan sezilarli darajada farq qilmasdan amalga oshadi.

Qoraqalpog'iston, Sirdaryo va Surxondaryo kabi hududlar soliq tushumlari nisbatan pastroq shakllangan hududlar. Bu holat asosan hududlarning iqtisodiy resurslari cheklanganligi, demografik parametrlarning pastligi hamda institutsional va boshqaruv samaradorligini oshirish zarurati bilan izohlanadi. Shu sababli ushbu hududlarda soliq bazasini kengaytirish va real soliq tushumlarini maksimal darajada oshirishga qaratilgan strategik choralar muhim hisoblanadi.

Hududlararo tafovutlarni tahlil qilish hududiy fiskal siyosat uchun bir qator amaliy natijalarni beradi. Birinchidan, budjet rejalashtirish jarayonida hududlarning real va potensial soliq tushumlari asosida xarajatlar aniqlanadi. Ikkinchidan, budjetlararo transfertlar orqali resurslar samarali taqsimlanadi va kam rivojlangan hududlar qo'llab-quvvatlanadi. Uchinchi jihat hududiy rivojlanish strategiyasida soliq bazasini kengaytirish, urbanizatsiya, infratuzilma va institutsional samaradorlikni oshirish orqali fiskal imkoniyatlarni optimallashtirish hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, hududlararo soliq salohiyatidagi tafovutlar ko'plab omillarga bog'liq. Iqtisodiy ixtisoslashuv, urbanizatsiya darajasi, infratuzilma, demografik parametrlar va institutsional samaradorlik hududlarning real va potensial soliq tushumlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, integratsiyalashgan ko'p omilli regressiya modeli hududlararo tafovutlarni kvantitativ tahlil qilish va hududiy fiskal siyosatni ilmiy asosda shakllantirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Musgrave, R. A., Musgrave, P. B. Public Finance in Theory and Practice. 5th ed. — New York: McGraw-Hill Book Company, 1989.
2. Laffer, A. B. The Laffer Curve: Past, Present, and Future. — Washington, DC: The Heritage Foundation, 2004.
3. Горский, И. В. Налоговый потенциал в механизме межбюджетных отношений // Вопросы экономики. — 2003. — № 6.
4. Пансков, В. Г. Налоги и налогообложение в Российской Федерации: учебник для вузов. 7-е изд., доп. и перераб. — Москва: МЦФЭР, 2006. — 592 с.

3 Manba: Muallif hisob-kitoblari asosida ishlab chiqilgan.



5. Jo'rayev, A. S. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. — Toshkent: Sharq, 2004.
6. Voxidov, O. V. Soliq salohiyatini shakllantirish va undan foydalanish samaradorligini oshirish. Iqtisod fanlari doktori dissertatsiyasi. — Toshkent: BMA, 2015.
7. Toshmatov, Sh. A. Kichik tadbirkorlik subyektlarini soliqqa tortish asoslari. Monografiya. — Toshkent: Moliya, 2012. — 160 b.
8. Smith, A. An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations. — London: W. Strahan and T. Cadell, 1776.
9. Ricardo, D. On the Principles of Political Economy and Taxation. — London: John Murray, 1817.
10. Oates, W. E. An Essay on Fiscal Federalism // Journal of Economic Literature. — 1999. — Vol. 37, No. 3. — P. 1120–1149. DOI: 10.1257/jel.37.3.1120.
11. Bird, R. M., Smart, M. Intergovernmental Fiscal Transfers: International Lessons for Developing Countries // World Development. — 2002. — Vol. 30, No. 6. — P. 899–912.
12. Stiglitz, J. E. Economics of the Public Sector. 3rd ed. — New York: W. W. Norton & Company, 2000.
13. Ibragimov, Z. Hududiy soliq salohiyatini baholashning zamonaviy yondashuvlari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. — 2019. — № 4. — B. 45–58.
14. Mas'udov, A. O'zbekistonda hududiy fiskal siyosatni takomillashtirish muammolari // Moliya va bank ishi. — 2020. — № 2. — B. 12–26.
15. Tursunov, B. Hududlarning soliq salohiyatini oshirishda institutsional omillarning roli // O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. — 2021. — № 3. — B. 33–44.

muhandislik

& iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100